



## BOBUR G‘AZALLARIDA MUSAJJA, TAJZIYA, MUSALSAL QOFIYA.

*Nurbadalova Bo‘ritosh Begali qizi*

Shoh va olim Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari sodda xalqchil va ravonligi bilan mashhur. Bobur g‘azallarida buyuk olim sifatida qofiyaning barcha turlarida go‘zal namunalar yaratgan. Biz ushbu maqolamizda Zahiriddin Muhammad Boburning musajja, tajziya va musalsal qofiyalarni ko‘rib o‘tamiz.

Musajja “sajli, qofiyali” ma’nosida bolib baytlari ichki qofiyali bolgan she’riy asarlar shunday ataladi. Musajja she’rlarda baytlardagi misralar teng ikki bo‘linadi va oldingi uch bo‘lak mustaqil holda qofiyalanib to‘rtinchi bo‘lak esa she’rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so‘z bilan tugallanadi. Bu xil qofiya usuli to‘rtta teng bo‘lakka bo‘linishi mumkin bo‘lgan sakkiz ruknli baytlardagina qo‘llanishi mumkin.

Musajja usulini turkiy she’riyatda ilk bor Alisher Navoiy qo‘llagan. Navoiyning qator g‘azallari shu usuldadir. Masalan ,uning quyidagi

*Tun oqshom bo‘ldiyu kelmas mening sham’i shabistonim,*

*Bu anduh o‘tiding har dam kuyar parvonadek jonim.*

*G‘amidin durri maknundek sirishkim oqtin*

*Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g‘altonim.*

*Falak ham to‘ldi kavkabdin quyosh ham tushti ashhabdin,*

*Kelib tushmas bu markabdin mening xurshidi raxshonim*

baytlari bilan boshlanuvchi ushbu g‘azalda qo‘llangan musajja usuli g‘azal ohangdorligini kuchaytirib unga ayricha latofat va joziba bag‘ishlagan.

Alisher Navoiy ushbu g‘azallaridagi matla’lar musajja’ emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida “...musajja’ g‘azallarning matla’sida saj kamroq rioyat qilibdurlar. Agar rioya qilinsa yaxshiroq bo‘lg‘usidir, nechukkim:



*Qaro zulfing firoqida parishon ro ‘zgorim bor  
Yuzungning ishtiyoyqida ne sabru ne qarorim bor.  
Labing bag ‘rimni qon qildi, ko ‘zimdan qon ravon qildi  
Nega holim yamon qildi, men ondin bir so ‘rorim bor”.*

deya o‘zining ushbu tajziya usulidagi musajja’ g‘azalini to‘la keltiradi. Bu mat’ladagi ichki qofiya, darhaqiqat, asar latofatini oshirgan.

Tajziya (bo‘lak- bo‘lak qilmoq) bayt misralarining har birini ikki bo‘lakka ajratib, misralardagi birinchi bo‘laklarni ham, ikkinchi bo‘laklarni ham o‘zaro qofiyalash san’atidir. O‘rganishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, Boburning 119 g‘azalidan 5tasida tajziyaning go‘zal namunalarini yaratganligini ta’kidlashimiz mumkin.

Masalan, quyidagi g‘azalida:

*Soqiy erur ishrat chog ‘i, afsurda bo ‘lma day bila,  
O ‘ttek chog ‘ir keltur, dag ‘i, suhbat tutoshur may bila  
Keltur sharobi nobni, omoda qil asbobni,  
Xush tut sha ‘bi muhtobni chun border ul oy bila*

“Chog‘i”, “dag‘i” va “day”, “may” so‘zлari qo‘sh qofiyali baytga joziba bag‘ishlagan.

Yoki navbatdagi g‘azalda:

*...Xating aro uzoring sabza ichinda lola  
Ul chashmi pur xumoring loladagi g‘azola  
Barcha parilar ey jon girdingda zoru hayron  
Go ‘yo erur namoyon oy tegrasida hola*

baytlari bilan boshlanuvchi musajja g‘azali muzore‘i musammani axrab vaznida bitilgan.

Yoki quyidagi:

*G ‘ofil o ‘lma, ey soqiy, gul chog ‘in g ‘animat tut  
Vaqti aysh erur boqiy, ol chog ‘ir, ketur, bot tut.*



*Bu nasihatim angla, ne bilur kishi yongla,  
Ne bo 'lur ekan tongla sen bukun g‘animat tut  
g‘azali hazaji musammani ashtar vaznida bitilgan.  
To‘plamdag'i quyidagi g‘azalda:*

*Ey yuzi nasrin,qomati shamshod  
Necha qilursan jonima bedod  
Sen kibi purkor, shevasi bisyor  
Bilmadi ey yor, hech kishi yod.*

g‘azali mutaqoribi musammani asrami musabbag‘ vaznida yaratilgan.

Bobur musajja g‘azallarni vazmin, salobatli ohangda emas, yengil, o‘ynoqi vaznlarda ham bitish mumkinligini, bu asarga yanada jozibali ohang bag‘ishlashini ko‘rsatib o‘tgan.

Musalsal g‘azallar. “Zanjirli” ma’nosini bildiradi va barcha misralari qofiyalangan lirik she’rni ifodalaydi. Forsiy va turkiy adabiyotlarda barcha misralari qofiyalangan she’rlar kam bo‘lsa-da yaratilgan.

She’riyatimizda musalsal g‘azalni birinchi bo‘lib Navoiy yaratgan deb qaraladi.

*Qoshi yosinmu deyin, ko ‘zi qarosinmu deyin,  
Ko ‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?  
Ko ‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,  
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu deyin?*

g‘azalida birinchi misralarda keltirilgan ikkitadan qofiya g‘azalning asosiy qofiyasi bilan ohangdosh holda she’rga ayricha jilo bergen.

O‘rganishlarimiz asnosida ma’lum bo‘ldiki, Bobur ijodida musalsal g‘azallardan namunalar uchramaydi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. –T.: O‘qituvchi, 2017.
2. Bobur Zahiriddin. Devon. – T.: Sharq, 1996.
3. Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.